

“Hududiy elektr tarmoqlari” AJning  
2024-yil “16” fevraldag'i  
10 OA -son bayoniga  
1- ilova

**“Hududiy elektr tarmoqlari” AJda**  
**“2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi” doirasida**  
**Gender masalalari boyicha Maslahat-kengashi va Xotin-qizlar masalalari boyicha boshlang’ich tashkiloti tomonidan**  
**2024-yil davomida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar**  
**REJASI**

<b>№</b>	<b>Bajariladigan chora-tadbirlar</b>	<b>Amalga oshirish muddati</b>	<b>Mas’ullar</b>
1.	“2024-yil – Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili” munosabati bilan hamda “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi” doirasida “Hududiy elektr tarmoqlari” AJda faoliyat olib borayotgan yosh xodimlarni qo‘llab-quvvatlash, xotin-qizlar va erkaklarning huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy-siyosiy faolligi, ma’naviy-ma’rifiy dunyoqarashini oshirish, kasbiy mahoratini yuksaltirib borish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish, jamoat ishlarida ularni ishtirokini ta’minlash boyicha ishlarni tashkillashtirish.	Yil davomida	Xotin-qizlar masalalari bo‘yicha boshlang’ich tashkiloti raisi – Maslahat-kengashi raisi o’ribbosari (Ibragimova), Ma’naviy-ma’rifiy ishlar, davlat tili to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishi bo‘yicha rais maslahatchisi – Kasaba uyushmasi raisi (Xabibova), Yoshlar yetakchisi (Xojimurodov),
2.	Jamiyat ishchi-xodimlari o‘rtasida gender tenglik bo‘yicha qonuniy-meyoriy hujjatlar mazmun-mohiyatini targ‘ib etish hamda gender zo‘ravonlikning oldini olishga	Yil davomida	Xotin-qizlar masalalari bo‘yicha boshlang’ich tashkiloti raisi – Maslahat-kengashi raisi o’ribbosari (Ibragimova)

<b>№</b>	<b>Bajariladigan chora-tadbirlar</b>	<b>Amalga oshirish muddati</b>	<b>Mas'ullar</b>
	qaratilgan tegishli mas'ullar ishtirokida seminar-trening tadbirlarini tashkillashtirish.		
3.	Xotin-qizlar va erkaklarning jins bo'yicha bevosita va belvosita kamsitishlarning oldini olishda Jamiyat Maslahat-kengashi va kasaba uyushmasi, shuningdek, Xotin-qizlar masalalari bo'yicha boshlang'ich tashkiloti o'rtaсидаги ijtimoiy sheriklikni mustahkamlash.	Yil davomida	Xotin-qizlar masalalari bo'yicha boshlang'ich tashkiloti raisi – (Ibragimova), Kasaba uyushmasi raisi (Xabibova), Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi boshlig'i (Xusanova),
4.	"Hududiy elektr tarmoqlari" AJ da faoliyat yuritayotgan xotin-qizlarning muammolarini o'z vaqtida aniqlash, yordamga muhtoj bo'lgan, og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan ayol ishchi-xodimlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko'rsatish. Amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan doimiy monitoring yuritilishini ta'minlash	Yil davomida	Xotin-qizlar masalalari bo'yicha boshlang'ich tashkiloti raisi (Ibragimova), Jamiyat Kasaba uyushmasi raisi (Xabibova), Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi boshlig'i (Xusanova),
5.	8-mart xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan "Hududiy elektr tarmoqlari" AJda faoliyat olib borayotgan, Jamiyat hayotida faol, soha rivojiga munosib hissa qo'shib e'tiroflarga sazovor bo'layotgan xotin-qizlar haqida " <b>Ayol-energetiklar – hamisha e'zozda</b> " mavzuida ijtimoiy roliklar taylorlash	Fevral	Matbuot rotibi (Nuraliyev), Xotin-qizlar masalalari bo'yicha boshlang'ich tashkiloti raisi – OAV bilan ishlash xizmati boshlig'i (Ibragimova)

<b>№</b>	<b>Bajariladigan chora-tadbirlar</b>	<b>Amalga oshirish muddati</b>	<b>Mas'ullar</b>
6.	“8-mart - Xalqaro xotin-qizlar kuni” hamda 21-mart – “Navro‘z” umumxalq bayrami munosabati bilan Jamiyatda bayram tadbirlari o‘tkazilishida barcha xodimlar ishtirokini ta’minlash.	Mart	Xotin-qizlar masalalari bo‘yicha boshlang’ich tashkiloti raisi (Ibragimova), Yoshlar yetakchisi (Xojimurodov), Jamiyat Kasaba uyushmasi raisi (Habibova)
7.	Xotin-qizlar davlat qo‘mitasi hamda Osiyo tarraqiyot banki hamkorligida “Ayollarning energetika sohasidagi o‘rnii: zamonaviy tendensiyalar” mavzusida an’anaviy forum o‘tkazish.	Aprel	Xotin-qizlar masalalari boyicha boshlang’ich tashkiloti raisi (Ibragimova), Xodimlar bilan ishslash boshqarmasi boshlig’i (Xusanova)
8.	Xodimlarning jismoniy faolligini oshirish hamda “Sog‘lom turmush tarzi” umummilliylar harakati doirasida Jamiyatning ishchi-xodimlari o‘rtasida sog‘lomlashtirish tadbirlarini tashkil etish. Sportning shaxmat, shashka, stol tennis, voleybol kabi turlari bo‘yicha musobaqalar tashkil etish.	May	Xotin-qizlar masalalari boyicha boshlang’ich tashkiloti raisi (Ibragimova), Jamiyat Kasaba uyushmasi raisi (Xabibova), Xodimlar bilan ishslash boshqarmasi boshlig’i (Xusanova), Yoshlar yetakchisi (Xojimurodov)

<b>№</b>	<b>Bajariladigan chora-tadbirlar</b>	<b>Amalga oshirish muddati</b>	<b>Mas'ullar</b>
9.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022.07.03dagi PF-87-son Farmonining “2022-2026 yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo‘yicha Milliy dasturi” asosida « <b>Yangi O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!</b> » shiori ostida har yili xodimlar, birinchi navbatda xotin-qizlarning mamlakatimizdagi so‘lim go‘shalar, dam olish maskanlari va tarixiy shaharlarga sayohatlarini tashkil etib borish	Yil davomida	Xotin-qizlar masalalari boyicha boshlang’ich tashkiloti raisi (Ibragimova), Jamiyat Kasaba uyushmasi raisi (Xabibova), Xodimlar bilan ishslash boshqarmasi boshlig’i (Xusanova)
10.	Xodimlarning xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish ishlarini takomillashtirish maqsadida xotin-qizlar va erkak ishchi-xodimlarni <b>tibbiy ko‘rikdan o’tkazish</b> tadbirlarini tashkil qilish.	Sentabr-noyabr	Xotin-qizlar masalalari boyicha boshlang’ich tashkiloti raisi (Ibragimova), Xodimlar bilan ishslash boshqarmasi boshlig’i (Xusanova)
11.	Jamiyat boshqaruvida xotin-qizlarning ulushi va ijtimoysiyoziy mavqeysini oshirish maqsadida tizimda faoliyat olib borayotgan <b>faol, fidoyi lider xotin-qizlarni saralash</b> hamda <b>iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash</b> , ularni rahbarlik lavozimlariga tayyorlash bo‘yicha kadrlar zahirasini (elektron bazasini) shakllantirish	Yil davomida	Xotin-qizlar masalalari boyicha boshlang’ich tashkiloti raisi (Ibragimova), Xodimlar bilan ishslash boshqarmasi boshlig’i (Xusanova)

<b>№</b>	<b>Bajariladigan chora-tadbirlar</b>	<b>Amalga oshirish muddati</b>	<b>Mas'ullar</b>
12.	“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ va uning tarkibidagi tashilotlarda samarali mehnati hamda faol va tashabbuskorligi uchun Jamiyat va davlat mukofotlari bilan taqdirlangan ishchi-xodimlar haqidagi <b>ma'lumotlar bazasini shakllantirish</b> .	Har yarim yillikda	Xotin-qizlar masalalari boyicha boshlang'ich tashkiloti raisi (Ibragimova), Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi boshlig'i (Xusanova)
13.	“ <b>2024-yil – Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili</b> ” munosabati bilan oliy ta'lim muassasalarining tegishli yo'nalish talabalarini sohaga chuqurroq jalg qilishga qaratilgan tadbirlar tashkil qilish, umumiyo'rta ta'lim muassasalarining o'quvchilarini energetika sohasiga qiziqtirish maqsadida Jamiyat faoliyati bilan yaqindan tanishtirishga qaratilgan ekskursiya va ochiq muloqotlar uyushtirish	Yil davomida	Xotin-qizlar masalalari boyicha boshlang'ich tashkiloti raisi (Ibragimova), Yoshlar yetakchisi (Xojimurodov), Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi boshlig'i (Xusanova)
14.	Jamiyat tizimida faoliyat olib borayotgan ishchi-xodimlar gender tenglik bo'yicha toifalangan (jinsi, yoshi, ma'lumoti, millati, oilaviy ahvoli) statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishslash va tahlil qilish hamda infografiklar tayyorlash.	Har chorakda	Xotin-qizlar masalalari boyicha boshlang'ich tashkiloti raisi (Ibragimova) Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi boshlig'i (Xusanova)

<b>№</b>	<b>Bajariladigan chora-tadbirlar</b>	<b>Amalga oshirish muddati</b>	<b>Mas'ullar</b>
<b>15.</b>	Jamiyat tarkibiy tashkilotlarida ishchi-xodimlar uchun yaratilgan mehnat sharoitlari, gender tenglikni ta'minlash borasida olib borilayotgan ishlarni joyiga chiqqan holda o'rganish, sayyor uchrashuv va ochiq muloqotlar o'tkazish, aniqlangan kamchiliklar bartaraf etilishini ta'minlash	Yil davomida	Xotin-qizlar masalalari boyicha boshlang'ich tashkiloti raisi (Ibragimova), Xodimlar bilan ishslash boshqarmasi boshlig'i (Xusanova), Jamiyat Kasaba uyushmasi raisi (Xabibova)
<b>16.</b>	Jamiyat xotin-qizlari ba erkaklari o'rtasida "Odob-axloq" qoidalarida ko'rsatib o'tilgan kiyinish madaniyati va milliy an'analarni mustahkamlash bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish, muomila madaniyatiga rioya etish. "Xon atlas-2024" festivali doirasida milliy atlas, adres, beqasam matolaridan tikilgan bejirim liboslarni kiygan holda maxsus fleshmoblar o'tkazish.	Sentabr – oktabr	Xotin-qizlar masalalari boyicha boshlang'ich tashkiloti raisi (Ibragimova) Xodimlar bilan ishslash boshqarmasi boshlig'i (Xusanova)